

07-01/77  
14.07.2025 y.

“TASDIQLAYMAN”

Viloyat hokimining  
o‘rinbosari



X. Tuxtayev

2025-yil \_\_\_\_ -iyul

**Samarqand viloyati hokimligida o‘tkazilgan navbatdagi yig‘ilish  
BAYONI**

2025-yil \_\_\_\_ -iyul

**Samarqand shahri**

**Raislik qiluvchi:** X.Tuxtayev – viloyati hokimining o‘rinbosari

**Qatnashganlar:** Bosharma va tashkilot rahbarlari va tuman (shahar) hokimliklari.

**KUN TARTIBI:**

**Mahallalarda oilalar o‘rtasida “Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi” tanloviga ‘tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida**

---

(X.Tuxtayev, Z.Saidova, S.Zayniyev, Sh.Yo‘ldoshev, X.Kubayev, .. X.Tuxtayev)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6099-sod Farmoni asosida Respublikada aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yurish, yugurish, mini-futbol, velospot, badminton, stritbol, “Workout” (*mahalla va ko‘cha fitnessi*) sportning ustuvor turlari etib belgilandi.

Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan Samarqand viloyat hokimi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil yanvar oyida tasdiqlagan chora-tadbirining 10 -bandiga muvofiq “Aholiga sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni olib borish” maqsadida mahallalarda oilalar o‘rtasida “Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi” tanlovini o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Oilalardagi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish maqsadida mahallalarda oilalar o‘rtasida har yili “Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi” tanlovini o‘tkazib kelinayotganligi aholi salomatligini mustahkamlash hamda oilalardagi tibbiy madaniyatini oshirishni maqsadida yig‘ilish

## QAROR QILADI:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6099-son Farmoni hamda Samarqand viloyat hokimi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil yanvar oyida tasdiqlagan chora-tadbirlar rejasiga rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Quyidagilar:**

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha viloyat tashkiliy qo‘mitasining tarkibi **1-ilovaga muvofiq**:

Tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitalarining namunaviy tarkibi **2-ilovaga muvofiq**;

“Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi” ko‘rik tanloving viloyat bosqichini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga **3-ilovaga muvofiq**;

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom **4-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

**3.** Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), O‘zbekiston mahallar uyushmasi viloyat boshqarmasi (**Sh.Yo‘ldashev**), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (**X.Kubayev**) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda iyul-avgust oylari davomida barcha mahallalarda “Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi” tanlovini o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

Bunda, I-bosqich 19-iyul kuniga qadar tuman va shaharlarda sektor bosqichi; II-bosqich 26-iyul kuniga qadar tuman va shahar bosqichi; III-bosqich 5-avgust kuniga qadar viloyat bosqichi o‘tkaziladi.

**4. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**):**

tanlov Nizomida belgilangan shartlar bo‘yicha yo‘nalishlar, savollar ro‘yxatini, tanlov ssenariysi loyihalarni ishlab chiqilishi hamda viloyat tashkiliy qo‘mitasining qarori bilan tuman (shahar)lar tashkiliy qo‘mitalariga yetkazilishini ta’milasini;

tanlov bosqichlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ishlab chiqilsin;

tanlov yakunlari haqidagi bat afsil ma’lumotlarni, shuningdek Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning namunali oilasi tanloviga oid ishtirokchilarning taklif-mulohazalarini umumlashtirgan va tahlil qilgan holda viloyat mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashiga taqdim etsin;

zarur hollarda, viloyat tashkiliy qo‘mitasi yig‘ilishi qarori bilan tanlov Nizomiga hamda uning bosqichlarini o‘tkazish muddatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishini ta’milasini;

ushbu majlis bayonida belgilangan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda viloyat tashkiliy qo‘mita a’zolari ishtirokida tanlov bosqichlarini o‘z vaqtida hamda yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minalash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilasini;

tanloving yakuniy viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritgan oilalarni tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari mas’ulligida xavfsizligini ta’milagan holda tanlovni o‘tkazish joyiga belgilangan muddatlarda kelishlari va ketishlari bilan bog‘liq masalalarni tashkillashtirsin

**5. Viloyat Madaniyat boshqarmasi** (O.Xaitov), tadbirning viloyat bosqichida ishtirokchilar uchun ssenariy asosida konsert dasturini tashkil etsin.

**6. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi** (X.Umarov) **Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi** (L.Sodiqov) tadbirlar o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibini tanlov ishtirokchilar xavfsizligni ta'minlash choralarini ko'rsin.

**7. Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi** (S.Zayniyev) hamda **viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi** (L.Rustamov) tadbirlar o'tkaziladigan joylarda tibbiy xizmat navbatchiligini tashkil etsin ta'minlasin.

**8. Viloyat hokimligi matbuot kotibi** (M.Ixtiyorov) **viloyat teleradiokompaniyasi** (D.Ismatov), "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalari birlashgan tahririysi (F.Toshev)ga tanlov jarayonlarini jarayonlarini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish va maxsus rukn, ko'rsatuv hamda eshittirishlar orqali keng yoritish va efirga uzatish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

**9. Ushbu bayonda belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.**

Bayonlashtirdi

M.Otamurodov

(S. Zayniyev)

(B. Baxrasov)